

# ЎТМИШГА НАЗАР

6 ЖИЛД, 2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
ТОМ 6, НОМЕР 2

LOOK TO THE PAST  
VOLUME 6, ISSUE 2



ТОШКЕНТ-2023

**Бош мухаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Раҳбар Ҳамидовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош мухаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори,  
профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобоҷонова Дијором Бобоҷонова**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари  
университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Аширов Адҳам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзРФА Тарих институти

**Аззамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзРФА Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Хотин-қызлар давлат педагогика  
университети

**Ульяева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори,  
Тошкент ким - технология институти

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайджон давлат  
иқтисодиёт университети

**Гоффоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори, профессор,  
Қарши мұхандислик-иқтисодиёт  
институти

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Халикова Раҳбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боҳодир Жӯраевич**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Қарши давлат университети

**Махкамова Надира Рахмановна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент аҳборот технологиялари  
университети

**Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафаева Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозогистон дипломатия академияси

**Рахмонкулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Расулов Абдуллажон Нуриддинович**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Қозогистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори, профессор,  
Қозогистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори,  
Озарбайжон давлат университети

**Саипова Камола Давлаталиевна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмайлова Алмаз**  
тарих фанлари доктори,  
Дөгистон мустақил университети

**Иноятова Диларрам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Ўзбекистон Миллий университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
Тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Ўзбекистон жаҳон  
тиллари университети

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

**Контакт редакций журналов.** [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of** [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

# **МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT**

<b>1. Севара Пулатова</b> ТАРИХИЙ ТАДКИҚОТ МЕТОДЛАРИ ҲАҚИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР (Фарбий Европа ва АҚШ тарихшунослиги методлари асосида).....	4
<b>2. Дилафруз Атамуратова</b> ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИ РИВОЖЛАНИШНИ ТАЪМИНЛАШДА ЁШЛАРГА ОИД ДАВЛАТ СИЁСАТИНИНГ МОҲИЯТИ.....	10
<b>3. Норпулат Аҳмеджанов</b> ЖИЗЗАХ ВИЛОЯТИДАГИ ТАРИХИЙ-МАДАНИЙ ЁДГОРЛИКЛАРНИНГ ҮРГАНИЛИШИ.....	16
<b>4. С.И. Габриэльян</b> XIX АСР ОХИРИ КОНСЕРВАТОРЛАР ДАВРИ ЭРОНИДА АНГЛИЯ СИЁСАТИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР.....	21
<b>5. Шахноза Касимова</b> МУЗЕЙ КОММУНИКАЦИЯСИ БАДИЙ ВА ЭСТЕТИК РИВОЖЛАНИШНИНГ УСЛУБИЙ АСОСИ СИФАТИДА.....	31
<b>6. Қобулжон Насритдинов</b> СУВ ХЎЖАЛИГИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ВА ПАХТА ЯККАҲОКИМЛИГИ СИЁСАТИГА БЎЙИНСУНДИРИЛИШИ ТАРИХИДАН (ФАРГОНА ВОДИЙСИ МИСОЛИДА).....	36
<b>7. Эркин Раджапов</b> ТУРКИСТОН МИНТАҚАСИДА СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ ҲАРБИЙ СИЁСАТИ ВА “МУСУЛМОН ҲАРБИЙ ҚИСМЛАРИ”.....	44
<b>8. Гавхар Турсунова</b> РОССИЯ ИМПЕРИЯСИНИНГ СИРДАРЁ ВИЛОЯТИГА АҲОЛИНИ КЎЧИРИШ СИЁСАТИ ЖАРАЁНИДА МУСТАМЛАКА МАъМУРИЯТИ ОЛИБ БОРГАН МАъМУРИЙ-СИЁСИЙ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ (XIX АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИ – XX АСР БОШЛАРИ).....	57
<b>9. Nodira Shermatova</b> ABU NASR FAROBIY FALSAFASIDA BILISH KATEGORIYALAR.....	70
<b>10. Fotima Shirinova, Zumrat Kasimova</b> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA MA'NAVIY – MADANIY TARAQQIYOT.....	76
<b>11. Бахтиёр Халмуратов</b> ФАРГОНА ВОДИЙСИДА ҲУНАРМАНДЧИЛИК: ЭТНИК ВА ҲУДУДИЙ ХУСУСИЯТЛАР.....	82
<b>12. Xurshid Egamqulov</b> XALQ XIZMATIGA BAHSHIDA UMR (Jizzax “Milliy ittihod” sho‘basi a’zosi Orifjon Olimjonov haqida).....	86



ISSN: 2181-9599  
www.tadqiqot.uz

**Kurshid Olimovich Egamkulov,**

Jizzax shahridagi 21-umumiyy o'rta ta'lif

maktabi tarix fani o'qituvchisi, erkin tadqiqotchi

E-mail: jizzax\_wushu@mail.ru

## XALQ XIZMATIGA BAHSHIDA UMR (Jizzax "Milliy ittihod" sho'basi a'zosi Orifjon Olimjonov haqida)

**For citation:** Khurshid O. Egamkulov, "A LIFETIME DEDICATED TO PUBLIC SERVICE". (About Orifjan Olimjanov, a member of the Jizzakh "Milliy Ittihad" branch). Look to the past. 2023, vol. 6, issue 2, pp.86-92



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.7680676>

### ANNOTASIYA

Jizzaxda tug'ilib voyaga yetgan o'sha davr faollaridan biri Orifjon Olimjonov qisqa umr ko'rgan bo'lsa-da, o'sha zamon talabiga ko'ra o'zining butun faoliyatini xalq xizmatiga baxshida qilgan haqiqiy oljanob insonlardan biri edi. U 23 yoshida Jizzax uyezd partiya qo'mitasining kotibi bo'lgan. Bir qator mas'uliyatlari vazifalarda faoliyat yuritgan. Nafaqat vohada, qolaversa butun Respublikada ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy hayotni tiklashga, fuqarolarning turmush darajasini yaxshilashga munosib hissa qo'shgan fidoyi inson edi. Maqolada Yo'ldosh Oxunboboevning otuvga buyurilgan kotibi, sovetlarning mash'um ommaviy qirg'inlari qurbanli Orifjon Olimjonovning qisqa, biroq sermazmun va sertashvish umr yo'li haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** "Toshkentlik" mahallasi, mirob, rus-tuzem, Jizzax qo'zg'oloni, "Ko'k ko'yak" truppasi, komsomol qo'mitasi, uyezd yoshlar qo'mitasi, delegat, muxtor vakil, qurultoy, tashabbus, tashviqotchilik kursi, yo'riqchi, Yo'ldosh Oxunboboev, "Alanga" jurnali, Bekobod, mehnat tuzatuv lageri, Solovetskiy lageri, otuv, Kareliya ASSR, Sandarmox qatlgohi, harbiy tribunal, Leningrad shahar sudi.

**Хуршид Олимович Эгамкулов,**  
21-общая средняя образовательная школа в городе Джизак  
учитель истории, внештатный исследователь  
E-mail: jizzax\_wushu@mail.ru

## ЖИЗНЬ ПОСВЯЩЕННАЯ НАРОДУ (Джизак является членом филиала "Миллий Иттихад" Об Орифжоне Олимжонове)

### АННОТАЦИЯ

Один из активистов того времени, Орифжон Олимджанов, родился и вырос в Джизаке, хоть и прожил короткую жизнь, но был одним из поистине благородных людей, посвятивших всю свою карьеру служению народу, по требованиям того времени. В 23 года он стал секретарем

Джизакского райкома партии. Работал на ряде ответственных должностей. Он был самоотверженным человеком, внёсшим достойный вклад в восстановление социально-экономической и культурно-просветительской жизни не только оазиса, но и всей Республики, повышение уровня жизни горожан. В статье представлена информация о короткой, но полной и бурной жизни секретаря Ёлдоша Охунбобоева Орифжана Олимджанова, жертвы печального известных массовых расправ советских погромов.

**Ключевые слова:** махалля «Ташкентлик», мираб, рус-тузем, Джизакское восстание, труппа «Синяя рубашка», комитет комсомола, райком молодежи, делегат, автономный представитель, съезд, инициатива, пропагандистский курс, инструктор, Юлдаш Ахунбабаев, журнал «Аланга», Бекабад, исправительно-трудовой лагерь, Соловецкий лагерь, расстрел, Карельская АССР, Сандармоксский погром, военный трибунал, Ленинградский городской суд.

**Khurshid O. Egamkulov**  
History teacher of the 21st general  
secondary school in Jizzakh, freelance researcher  
E-mail: jizzax\_wushu@mail.ru

## "A LIFETIME DEDICATED TO PUBLIC SERVICE". (About Orifjan Olimjanov, a member of the Jizzakh "Milliy Ittihad" branch)

### ABSTRACT

One of the activists of that time, Orifjan Olimjanov, who was born and grew up in Jizzakh, although he lived a short time, he was one of the truly noble people who devoted his entire career to the service of the people, according to the requirements of that time. At the age of 23, he became the secretary of the Jizzakh district party committee.

Worked in a number of responsible positions. He was a devoted person who made a worthy contribution to the restoration of socio-economic, cultural and educational life, and improving the living standards of citizens not only in the oasis, but also in the entire Republic. The article provides information about the short, but full and turbulent life of Yoldosh Okhunboboev's secretary, Orifjan Olimjanov, a victim of the infamous Soviet massacres.

**Index Terms:** "Tashkentlik" mahalla, mirab, rus-tuzem, Jizzakh uprising, "Blue shirt" troupe, Komsomol committee, district youth committee, delegate, autonomous representative, congress, initiative, propaganda course, instructor, Yuldash Akhunboboev, "Alanga" magazine, Bekabad, labor correctional camp, Solovetsky camp, shooting, Karelian ASSR, Sandarmox massacre, military tribunal, Leningrad city court.

### 1. Dolzarbliji:

Orifjon Olimjonov jadid va rus-tuzem maktablari ta'limini olgan, 1916-yil Jizzax qo'zg'olonining yetakchilaridan biri sifatida turmaga tashlangan otasini oqlash maqsadida siyosiy kurash maydoniga qadam qo'ygan va shu bilan bir qatorda o'zi ham ushbu qo'zg'olonning faol ishtirokchilaridan biri bo'lgan, musulmon yoshlari klubining faollaridan edi. U sovet ma'murlari nazariga tushib Jizzaxda yoshlar ittifoqida (komsomol) mas'ul kotib sifatida faoliyat yuritgan. Orifjon Olimjonov ko'plab mas'uliyatlari vazifalarda faoliyat yuritishiga qaramay o'zining shijoati, g'ayrati, tashabbuskorligi bilan ajralib turgan. U o'zining faoliyati davomida ta'lim, fan, madaniyat, san'at va teatr rivojiga munosib hissa qo'shib, hatto "Milliy ittihod"ning Jizzax bo'limi a'zosi sifatida Vatan ozodligi yo'lida olib borgan sa'y-harakatlari uchun qatag'on qilingan edi.

### 2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Tadqiqot olib borish jarayonida ilmiy muammoga sivilizasion yondashuv asosida tarixiy-qiyosiy, muammoli-xronologik, ob'ektivlik, tizimli tahlil, manbaviy, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xolislik kabi usullar yordamida Jizzax vohasi ziyolilarining voha ijtimoiy-ma'naviy muhitda tutgan o'rni masalasi birlamchi hujjatlar tahliliga tayangan holda atroflicha tadqiq etildi.

Orifjon Olimjonovning hayoti va faoliyati haqida R.Shamsutdinovning “O’zbekistonda sovetlarning qatag‘on siyosati va uning oqibatlari”, H.Haydarovning “Jizzax viloyati tarixi”, B.O’rinboev, A. Rashidovlarning “Asrga tengdosh mактаб”, B.Azimov, O.Ayupovlarning “Ibratli yoshlik” kitoblarida, A.Mustafoev, Imom Berdi, S.Qosimovlarning davriy nashrlarda e’lon qilingan maqolalarida ma’lumotlarni uchratish mumkin.

Shu o’rinda qayd etish joizki, O.Olimjonovning hayoti va faoliyati, Vatan va xalq oldidagi xizmatlari haqida, xalq orasida uning ommalashishi bilan bog‘liq masalalar alohida tadqiqot ob’ekti sifatida o’rganilmagan.

### **3.Tadqiqot natijalari:**

Orifjon Olimjonov 1898-yili Jizzaxning eski shahar guzaridagi “Toshkentlik” mahallasida mirob Olimjon bobo oilasida tavallud topadi. Sovet tuzumi uchun jon kuydirgan va oxir-oqibat, shu tuzum qurban bo‘lgan millatdoshimizdir. Orifjon Olimjonov bor-yo‘g‘i 39 yil yashadi. Lekin shu qisqa hayoti davomida bir qator mas’uliyatli vazifalarda ishlab, o’zining yuksak tashkilotchilik va rahbarlik salohiyatini namoyon eta oldiki, bugungi avlod undan ibrat olsa arziydi.

Orifjon Olimjonov 1902-1916 yillarda Ananev va Mirzo Sodiqlar qo‘l ostida rus-tuzem maktabida tahsil oladi. Rus-tuzem maktabida tahsil olayotgan o’n sakkiz yoshli Olimjon Jizzaxda podsho hukumatining mardikorlikka olishga qarshi boshlangan qo‘zg‘olonda faol qatnashgan edi. Xalqning haq-huquqi kamsitilishi, hukumat tashkilotlarining zo‘ravonlik siyosati yosh bo‘lsa-da, uning ko‘zini ochgan edi. Shu sababli jizzaxliklar mustaqillik va ozodlik yo‘lidagi bu kurashida tomoshabin bo‘lib turmadni. Erk va ozodlikni targ‘ib qilish, mustamlakachilar va ularning mahalliy gumashtalari yuzini fosh qilish orqali qo‘zg‘olonda faol qatnashdi. Taassufki, haq uchun boshlangan bu yurish shavqatsizlarcha bostirildi. 1917-yil oktyabr to‘ntarishidan so‘ng Orifjon Olimjonov o‘z bilimini oshirish uchun Samarqand shahridagi yangi sovet maktablarining birida o‘qishni davom ettirdi va maktab ijtimoiy hayotida faol qatnashdi [1].

Ma’lumki, 1917-1920-yillarda Jizzax teatr san’atining shakllanish davri boshlanadi. Jumladan, 1918-yilning oxiri 1919-yilning boshlarida bir guruh san’at ixlosmandlari tomonidan dastlabki havaskorlik drama to‘garagi tuzilgan bo‘lib, ushbu to‘garak hozirgi Ziyokor qishloq fuqarolar yig‘inining (sobiq Moskva kolxozi) A.Navoiy ko‘chasidagi Mamarahim hoji degan kishining uyida faoliyat yuritgan. Jizzaxdagi “Namuna” mактabi qoshida tashkil etilgan ushbu “Ko‘k ko‘ylak” truppasida Orifjon Olimjonov ham faol ishtirot etgan va tashabbuskorlardan biri bo‘lgan [2].

Orifjon Olimjonovning tashabbusi bilan Jizzaxda (eski shahar markaziga yaqin joyda) birinchi yoshlar klubi tashkil etiladi. U paytlarda bunday markazni tashkil etish katta o‘zgarish hisoblanardi. Orifjon yoshlar klubiga o‘zi rahbarlik qiladi. Klubni tez orada yoshlarning chinakam siyosiy, ommaviy, madaniy markaziga aylantiradi. Klub qoshida kuchli sanoiy nafisa to‘garagi ham tashkil etiladi. To‘garakda yoshlar tez-tez sahna asarlari qo‘yishar, qo‘sinq va o‘yinlarni ijro etishar edi. Bu jamoa tumanda o‘tadigan tadbirlerda faol qatnashar, uzoq-uzoq qishloqlargacha borib kechalar uyushtirar, sahna asarlari ko‘rsatishar edi [3].

1918-yilning avgust oyida Jizzax uyezdida ishchi-dehqon va askar deputatlari Kengashi tuzilib, uning raisi qilib Ne’matilla Qarshiboev saylangan bo‘lsa, uning muovini etib Orifjon Olimjonov tayinlanadi [4].

1920-yil 10-iyunda Orifjon Jizzax komsomol tashkilotining tavsiyasi bilan partiya safiga qabul qilinadi. Orifjon Olimjonov o‘sha davrning sharoiti talabiga ko‘ra, komsomol komitetining topshirig‘i bilan o‘z xizmat vazifasini o‘zgartiradi. 1921-1922-yillarda ichki ishlar organlarida siyosiy xodim bo‘lib xizmat qila boshladi [5].

1922 yilda Sirdaryoda “ahvol murakkablashishi” tufayli Turkiston komsomol qo‘mitasi Orifjon Olimjonovni Sirdaryo viloyat komsomol qo‘mitasining birinchi kotibligi vazifasiga tayinlaydi. [6]

Undan so‘ng, Orifjon Olimjonov Samarqand viloyat komsomol qo‘mitasida biroz muddat ishlagach, Jizzax uyezdiga vakil qilib yuboriladi. Dastlab u bu erda Jizzax uyezd ijroiya qo‘mitasi a’zosi [7], so‘ng Jizzax uyezd yoshlar qo‘mitasi kotibligiga, 1923-yili Jizzax shahar partiya qo‘mitasi mas’ul kotibi lavozimiga saylanadi [8].

U maktab va maorif masalalariga g‘oyat katta e‘tibor bilan qarar, qayerdaki qarovsiz qolgan maktab bo‘lsa, uni ishga tushirish uchun ommani hasharga da‘vat etar, o‘zi boshida turardi. Turkiston Markaziy ijroiya Qo‘mitasining 1918-yil avgust oyida qabul qilgan “Maktablarda ta’lim-tarbiya ishlarini tashkil qilish va ona tilida dars olib borish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq Jizzaxda rus-tuzem maktabi joylashgan “Oq uy”da [9] ham yangi mакtab tashkil qilishda, uning moddiy bazasini mustahkamlashda faol tashkilotchilik ishlarini olib boradi. Bir necha yildan beri qarovsiz qolgan rus-tuzem maktabi binosi hashar yo‘li bilan ta’mirlanadi. Maktablarda ta’lim-tarbiya ishlarini tashkil qilish, uni o‘quv qurollari bilan ta’minalashda ham katta tashabbus ko‘rsatadi [10].

Mehnatkash xalq manfaatini yuqori qo‘ygan Orifjon Olimjonov 1924-yilda o‘n ikkinchi Turkiston Sho‘rolar qurultoyiga delegat etib saylanadi. 1924-yilda Turkiston sovetlarining 12-qurultoyida so‘zga chiqib, Jizzax hayotiga oid bir qator talablarni o‘rtaga tashladi. Shu yilning oxirlarida esa Buxoro Sho‘rolarining birinchi s’ezdi bo‘lib, ana shu tarixiy yig‘ilishda ham xalqning muxtor vakili sifatida ishtirok etadi [11].

U o‘ziga topshirilgan har qanday vazifani vijdanan bajarishi, ishga yuksak mas’uliyat bilan yondoshishi yuqori idoralar e‘tiborini jalb qila boshladi. Orifjon Olimjonov O‘rta Osiyo milliy chegaralanish komissiyasi a’zosi sifatida ham mehnat qildi.

1925-yilda Surxondaryo viloyat partiya qo‘mitasida madaniyat va san‘at bo‘limi mudiri vazifasida ishladi. 1926-yil boshidan oktyabr oyiga qadar Toshkent shahridagi qishloq xo‘jaligi texnikumi rahbari lavozimida faoliyat yuritdi. So‘ngra 1928-yil aprel oyigacha Toshkent shahri va viloyat xalq maorifi bo‘limiga mudirlik qildi. U ishdan ajralmagan holda O‘rta Osiyo davlat universitetining bir yillik tashviqotchilik kursida o‘qidi. O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi topshirig‘i bilan 1928-yil O‘zbekiston Kompartiyasi maktab-maorif, madaniyat va san‘at ishlari bo‘yicha bo‘limida yo‘riqchi vazifasini, shu bilan birga, Respublika Markaziy Ijroiya qo‘mitasi raisi Yo‘ldosh Oxunboboevning yordamchi-kotibligini bajardi. U bu vaqt ichida xalqning turmush darajasini, ularni qiyayotgan muammolarni o‘rgandi, bu haqda ma’ruzalar tayyorladi.

Uning bo‘sh vaqt umuman bo‘lmasdi. Shunga qaramay, kundalik gazetalarni mutolaa qilishga fursat topa olar, o‘zini tom ma’noda maorif xodimi va jurnalist deb bilardi. Shu bois, bu jabhadan o‘zini ayricha tasavvur etolmasdi. O‘scha yilning boshida O. Olimjonov tashabbusi bilan “Alanga” jurnalni tashkil etildi. Jurnalning yuz ochishi bevosita O.Olimjonov nomi bilan bog‘liq bo‘lib, unda san‘at va adabiyot masalalari yoritilardi. Arxiv hujjatlari orasida Yo‘ldosh Oxunboboyevning bir guruh ijodkorlar davrasida tushgan surati bo‘lib, surat tagso‘zida “O.Olimjonov “Alanga” jurnalni redaktori” deb ko‘rsatilgan [12]. Shu bilan bir qatorda “Maorif va o‘qitg‘uchi” jurnalni tahrir hay‘ati a’zosi hisoblangan. 1928-1930-yillarda Yangi lotin alifbosi markazi kengashining mas’ul kotibi, ayni paytda Samarqand okrug kompartiyasi tashkiliy bo‘limi mudiri o‘ribbosari vazifasini ham bajargan.

1926-yil 10-iyulda O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining qarori bilan yangi alifboni joriy etish maqsadida “Yangi o‘zbek alifbosi” Markaziy Qo‘mitasi tashkil etiladi. Mana shu Qo‘mitaga Orif Olimjonov mas’ul kotib etib saylanadi [13].

O‘scha davrdagi siyosat uchun yangi o‘zbek alifbosining joriy etilishi muhim masala hisoblanib, 1930-yil 21-fevralda Yangi o‘zbek alifbosi yaratilishida hissa qo‘shgan faol insonlar taqdirlangan edilar [14]. Ushbu ro‘yxatda Orif Olimjonov bilan birga Y.Oxunboboev, A.Ikromov, Fayzulla Xo‘jaev, Botu, Ramzi Mannon, Orif Amirov, Bekjon Rahmonovlar keltirib o‘tilgan. Orif Olimjonovning ushbu xizmatlari alohida e‘tirop etilib “Qizil yulduz” ordeni hamda “Mehnat qahramoni” unvonlari bilan taqdirlanadi.[15] Bu vaqtida Orifjon Olimjonovning “Maorif va o‘qitg‘uchi” jurnalida lotin alifbosiga bag‘ishlangan qator maqolalari ham chop etiladi [16].

Ushbu ro‘yxatda keltirilgan Orif Olimjonovga quyidagicha tavsifnomha berilgan edi:

“Keksa lotinchi, 1926 – 1927 - yillarda Yangi o‘zbek alifbosi Markaziy Qo‘mitasi rais o‘ribbosari bo‘lib faol ishlagan, 1927-yildan yangi o‘zbek alifbosi Markaziy qo‘mitasi mas’ul kotibi lavozimlarida ishlab kelmoqda. Yangi o‘zbek alifbosi Markaziy Qo‘mitasining amaliy ishlariga rahbarlik qiladi va nazorat qiladi. “O‘zbekistonda lotinlashtirish tarixi” kitobini tuzuvchilardan biri. Davriy matbuotda faol qatnashgan, «Alanga» jurnalni va yangi tojik gazetasi «TAMGAM SURX» tahririyati a’zosi” deyilgan [17].

Mualliflar B.Azimov va O.Ayupovlarning “Ibratli yoshlik” nomli tarixiy ocherkida: 1929-yilning 15-mayida ochilgan Respublika til-imlo konferensiyasi bu vazifalar yuzasidan ko‘p ishlarni amalga oshirdi. Konferensianing tashkiliy komissiyasida, konferensianing olim va tilshunoslardan iborat 17 kishilik hay’atida ham mohir pedagog va jurnalist Orifjon Olimjonov bor edi [18] – deya qayd etilgan.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, Orifjon Olimjonov qisqa muddat Rossiya bilan Xorazm va Buxoro okruglari o‘rtasida Toshkentda tuzilgan iqtisodiy shartnoma komissiyasi a’zosi hamda mas’ul kotibi ham bo‘lgan [19].

Orifjon Olimjonov 1930-yil mart-iyun oylarida Andijon okrug kolxoz ittifoqi raisi, 1930-yil iyundan O‘zbekiston SSR MIQ raisining kotibi lavozimida ish boshlaydi. Bundan ko‘rinadiki, Orifjon Olimjonov bir vaqtning o‘zida bir nechta muhim vazifalarda ishlagan.

1931-yilda O.Olimjonov Bekobod tuman Ijroiya qo‘mitasi raisligiga tayinlanadi. Lekin u bu vazifada uzoq ishlamaydi. Shu yilning 5-noyabr kuni u qamoqqa olinadi. Oqibatda u tuhmat qurboni bo‘ldi. Uning ortidan to‘rt farzandi, turmush o‘rtog‘i bo‘zlab qolgan edi.

Orifjon Olimjonov OGPU (Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi) kollegiyasi tomonidan 1932-yil 14-oktyabrdan otuvga hukm etilgan, so‘ngra jazo 10 yil muddatga mehnat tuzatuv lageri qamog‘iga hukm qilish bilan almashtirilgan, jazoni Solovetskiy lagerida o‘tagan. NKVDning (Ichki ishlar xalq komissarligi) Leningrad oblasti boshqarmasining maxsus uchligi tomonidan 1937-yil 9-oktyabrdan oliv jazoga hukm etilgan. 1937-yil 27-oktyabrdan Kareliya ASSRdagi Sandarmox qatlghohida otilgan [20].

Jizzax haqiqati gazetasining 1993-yil 26-iyundagi sonida jamoatchi muxbir Imom Berdi tomonidan yozilgan maqolada Orifjon Olimjonov 1937-yil 15-dekabrida u butunlay oqlanganligi, lekin bu haqdagi xabar atigi bir kun kechikib kelganligi sababli 16-dekabrdan otuv hukmi ijro etilganligi haqida aytib o‘tilgan [21].

Ayam rahmatlini aytishlaricha, - deydi “Respublikada xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi” Marat Oripov, o‘sha mash’um yillarni xotirlab, - dadam Orifjon Olimjonov qamalganlarida men 5 oylik chaqaloq ekanman. Oilamizda eng kattamiz – opam Hayri Oripova 7 yoshda, akam O‘ktam Oripov 4 yoshda, Erkin degan akam bir yashar (u oradan 3 yil o‘tib vafot etgan) ekan. Dadamlarni “xalq dushmani” degan ayb bilan qamoqqa olib keyinchalik otib yuborishgan ekan. Keyingi taqdirimiz oson kechmagan. Ayamlar bizning ko‘z yoshimizni oqizmay deb, turmushga chiqmaganlar. Toshkentdagi “O‘rtoq” qandolat fabrikasida mehnat qilib, farzandlarini boqqanlar. Qimmatchilik, “xalq dushmanining oilasi” degan tamg‘a har qadamda bizni ta‘qib etavergan. Yetishmovchilik tufayli Erkin akam 4 yoshida xastalanib vafot etgan. Men ham og‘ir betob bo‘lib yotib qolganman. Opam ikki yil menga qarash bilan ovora bo‘lib maktabga borolmaganlar. 1934-yilda ayamning akalari bizni Jizzaxga ko‘chirib kelganlar. Ayam bu yerdagi bog‘chalarning birida mudira bo‘lib ishlaganlar. Ammo ayrim kimsalar “xalq dushmanining xotini bog‘chaga mudira bo‘ladimi?” deb, onamni firqa a’zoligidan o‘chirtirib, ishdan oldirishgan. Ta’na toshlari yog‘ilavergach, 1938-yil boshlarida Olimjon degan xolamning o‘g‘li bizni Xorazmga ko‘chirib ketgan. 1939-yil avgustida yana Jizzaxga keldik. Dadam qamoqxonada yotganlarida ayam bilan ajralish haqida ariza yozganlar. Shu bizga biroz yengillik berdi. Lekin baribir opamga, ayniqsa, akamlarga “tamg‘a” ta’sirida to‘sqinlik saqlanib turaverdi [22].

Orifjon Olimjonovning farzandi Marat Oripovning aytishicha, onalari Qimmatoy Olimjonova turmush o‘rtog‘i Orifjon Olimjonov haqida biror iliq gap eshitib qolarmikanman, deya 40 yil najot kutdi. Biror nima deb arznama yo‘llashga avvaliga cho‘chib yurdilar. Nihoyat yurak yutib, yuqoriga yozgan so‘rovnomasiga 1974-yilning 6-sentyabrida Turkiston harbiy okrugi harbiy tribunal raisi M.Marov imzosi bilan 3/542-raqamli javob xati keladi. Unda bayon qilishicha, “Ish bo‘yicha ayblanuvchi Olimjonov Orif 1898-yilda tug‘ilgan, 1931-yil 5-noyabrdan qamoqqa olingunga qadar Bekobod tuman ijroiya qo‘mitasi raisining o‘rinbosari bo‘lib ishlab kelgan. Qizil bayroqli Turkiston harbiy okrugining harbiy tribunal va Leningrad shahar sudida mazkur ish 1974-yil 30-avgustda qayta ko‘rib chiqildi. 1932-yil 14-oktyabrdagi qarorning Olimjonov Orifga tegishli qismi bekor qilindi va ish to‘xtatildi. Mazkur ish yuzasidan Olimjonov Orif oqlandi” [23].

#### 4.Xulosalar:

Orifjon Olimjonov garchi dunyoni erta tark etgan bo'lsa-da, u aholi tinchligini saqlash, moddiy-ijtimoiy ta'minotini yaxshilash, aholi o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirishda faol mehnat qilgan. O'sha zamon talabiga ko'ra o'zining butun faoliyatini xalq xizmatiga baxshida qilgan haqiqiy oljanob inson bo'lgan. Uning sa'y-harakatlari bilan eski va yangi shaharda klub, kutubxonalar, teatr va boshqa madaniy-ma'rifiy muassasalar tashkil qilinib, aholiga madaniy xizmat ko'rsatish birmuncha yaxshilangan edi. Garchi u o'ziga topshirilgan har qanday vazifani vijdowan bajarishi, ishga yuksak mas'uliyat bilan yondoshsa-da, qatag'ondan chetda qolmadı. Ha, u sovet mustabid tuzumining tuhmat qurbanı bo'ldı. Yaqinlari, oilasi, farzandlari ortidan bo'zlab qolaverdi. Uning ishlarini farzandlari davom ettirdi. Uning farzandlari ko'p yillar O'zbekiston tibbiyotiga munosib hissa qo'shgan Xayri Oripova, tibbiyot fanlari doktori, professor, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi O'ktam Oripov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi Marat Oripovlarning mazmunli hayot faoliyatları e'tirofga sazovordir.

### Iqtiboslar/Сноски/References:

1. A.Mustafoev. "Unutilgan akademik". <http://jizzaxhaqiqati.uz/kultura/> 10571-unutilgan-akademik.html (A. Mustafoev. "Forgotten academic").
2. Xudoyorov X., Mamatkulov J. "Umr mazmuni". "Jizzax haqiqati" gazetasi, 1981-yil 17-iyul, № 88 (1121). (Khudoyorov Kh., Mamatkulov J. "The meaning of life". Jizzakh Haqiqati newspaper, July 17, 1981, No. 88 (1121)).
3. Azimov B., Ayupov O. "Ibratli yoshlik". – Toshkent: "YOsh gvardiya" nashriyoti, 1971. 6-7-betlar. (Azimov B., Ayupov O. "Excellent youth". - Tashkent: "Young Guard" publishing house, 1971. Pages 6-7.)
4. Haydarov H., Usmonov Q. Jizzax tarixi. – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009 yil. 121-bet. (H. Haydarov, Q. Usmanov. History of Jizzakh. - Tashkent: "Teacher" publishing house, 2009. Page 121.)
5. Azimov B., Ayupov O. "Ibratli yoshlik". – Toshkent: "YOsh gvardiya" nashriyoti, 1971. 8-bet. (B. Azimov, O. Ayupov. "Excellent youth". - Tashkent: "Young Guard" publishing house, 1971. Pages 8.)
6. Azimov B., Ayupov O. "Ibratli yoshlik". – Toshkent: "YOsh gvardiya" nashriyoti, 1971. 11-bet. (B. Azimov, O. Ayupov. "Excellent youth". - Tashkent: "Young Guard" publishing house, 1971. Pages 11.)
7. Zakiriy A., "Zarafshon" gazetasi, 1924-yil 8-dekabr soni. (A. Zakiri, "Zarafshon" newspaper, issue of December 8, 1924.)
8. Imom Berdi. "Kechikkan oqlov", Jizzax haqiqati gazetasi., 1999-yil 13-oktyabr, № 82 (3883). T. Javlonov. "Inqilob farzandi", Jizzax haqiqati gazetasi., 1977-yil 1-may, № 52 (461). (Imam Berdi. "Delayed vindication", Jizzakh Haqiqati newspaper, October 13, 1999, No. 82 (3883). T. Javlonov. "Child of the Revolution", Jizzakh Haqiqati newspaper, May 1, 1977, No. 52 (461)).
9. Bu shahardagi yagona oqlangan bino bo'lganligi uchun xalq uni "Oq uy" deb atagan. (People called it "White House" because it was the only elegant building in the city).
10. O'rınboev B, Rashidov A, Haydarov H. Asrga tengdosh maktab. Toshkent: "O'qituvchi", 1983. 17-bet. (Orinboev B, Rashidov A, Haydarov H. A school of the same age. Tashkent: "Teacher", 1983. 17 p.)
11. Azimov B., Ayupov O. "Ibratli yoshlik". – Toshkent: "YOsh gvardiya" nashriyoti, 1971. 13-bet. (B. Azimov, O. Ayupov. "Excellent youth". - Tashkent: "Young Guard" publishing house, 1971. Pages 13.)
12. Imom Berdi. "Xalqim deya ishlagan edi". Jizzax haqiqati gazetasi., 1993-yil 26-iyun, №70 (3190). (Imam Berdi. "He worked as my people." Jizzakh Truth Newspaper., June 26, 1993, No.70 (3190).)
13. O'zbekiston Milliy arxivi, 86-fond, 1-ro'yxat, 6179-yig'ma jild, 44-varaq. (National Archives of Uzbekistan, Fund 86, List 1, Volume 6179, Sheet 44.)

14. O‘zbekiston Milliy arxivi, 86-fond, 1-ro‘yxat, 6179-yig‘ma jild, 45-varaq. (National Archives of Uzbekistan, Fund 86, List 1, Volume 6179, Sheet 45.)
15. O‘zbekiston Milliy arxivi, 86-fond, 1-ro‘yxat, 6179-yig‘ma jild, 45-46-varaqlar. (National Archives of Uzbekistan, fund 86, list 1, collective volume 6179, sheets 45-46.)
16. O‘zbekiston Milliy arxivi, 86-fond, 1-ro‘yxat, 6179-yig‘ma jild, 46-varaq. (National Archives of Uzbekistan, Fund 86, List 1, Volume 6179, Sheet 46.)
17. O‘zbekiston Milliy arxivi, 86-fond, 1-ro‘yxat, 6179-yig‘ma jild, 47-varaq. Orif Olimjonov. "Til - istiloh". // "Maorif va o‘qitg‘uchi" jurnali. 1929 yil 7-8-son., 29-31-betlar. (National Archives of Uzbekistan, Fund 86, List 1, Volume 6179, Sheet 47. Arif Olimjanov. "Language is revolution". // "Education and Teacher" magazine. 1929 No. 7-8, pp. 29-31.)
18. B.Azimov, O.Ayupov. "Ibratli yoshlik". – Toshkent: "YOsh gvardiya" nashriyoti, 1971. 26-bet. (B. Azimov, O. Ayupov. "Excellent youth". - Tashkent: "Young Guard" publishing house, 1971. Pages 26.)
19. Azimov B., Ayupov O. "Ibratli yoshlik". – Toshkent: "YOsh gvardiya" nashriyoti, 1971. 28-bet (B. Azimov, O. Ayupov. "Excellent youth". - Tashkent: "Young Guard" publishing house, 1971. Pages 28.)
20. Shamsutdinov R. O‘zbekistonda sovetlarning qatag‘on siyosati va uning oqibatlari. 1-kitob. – Toshkent: «Sharq», 2012. 160-bet., www. Solovki.ca/camp-20/international/international\_uzbe.phl-57k 18.03.2011., Leningradskiy martirolog 1937–1938. T.1–5. Otv. Red.: A.YA Razumov SPb.: RNB., 1999. - 735 s. (Shamsutdinov R. Repressive policy of the Soviets in Uzbekistan and its consequences. Book 1. - Tashkent: "Sharq", 2012. Page 160, www. Solovki.ca/camp-20/international/international\_uzbe.phl-57k 18.03.2011., Leningrad martyrologist 1937–1938. T.1–5. Otv. Ed.: A. Ya Razumov SPb.: RNB., 1999. - 735 p.)
21. Imom Berdi. "Xalqim deya ishlagan edi". Jizzax haqiqati gazetasi., 1993-yil 26-iyun, №70 (3190) (Imam Berdi. "He worked as my people." Jizzakh Truth Newspaper., June 26, 1993, No.70 (3190).)
22. Orifjon Olimjonovning farzandi Marat Oripovning 1999-yil 25-iyunda yozib qoldirgan shaxsiy kundaligidan (From the personal diary of Marat Oripov, the son of Orifjon Olimjonov, written on June 25, 1999.)
23. Turkiston harbiy okrugining 1974-yil 6-sentyabrdagi № 3/542-sonli ma’lumotnomasi (Reference No. 3/542 of the Turkestan Military District dated September 6, 1974.).

# ЎТМИШГА НАЗАР

6 ЖИЛД, 2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
ТОМ 6, НОМЕР 2

LOOK TO THE PAST  
VOLUME 6, ISSUE 2

**Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000